ТЕРМИЗ ДАВЛАТ УНИВЕРСИТЕТИ

PHILOLOGICAL RESEARCH: LANGUAGE, LITERATURE, EDUCATION

FILOLOGIK TADQIQOTLAR: TIL, ADABIYOT, TA’LIM

ФИЛОЛОГИЧЕСКИЕ ИССЛЕДОВАНИЯ: ЯЗЫК, ЛИТЕРАТУРА, ОБРАЗОВАНИЕ

Илмий-инновацион журнал

Jurnal OAK Rayosatining 2022-yil 30-sentabrdagi 325/6-son qarori bilan filologiya fanlari bo‘yicha doktorlik dissertatsiyalari asosiy ilmiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrlar ro‘yxatiga kiritilgan

2021-yildan buyon nashr etiladi

2026/ № 1. 1-2

Termiz – 2026

Muassis:
Termiz davlat universiteti

PHILOLOGICAL RESEARCH: LANGUAGE, LITERATURE, EDUCATION

FILOLOGIK TADQIQOTLAR: TIL, ADABIYOT, TA'LIM

ФИЛОЛОГИЧЕСКИЕ ИССЛЕДОВАНИЯ: ЯЗЫК, ЛИТЕРАТУРА, ОБРАЗОВАНИЕ

ILMIY-INNOVATSION JURNAL

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan 2020 yil 19 oktyabrda 1122 raqami bilan ro'yxatga olingan. Matnlarda foydalanilgan misol, ko'chirma va ma'lumotlar aniqligi uchun mualliflar javobgardir. Jurnaldan ko'chirib bosilganda manba qayd etilishi shart.

Bosishga ruxsat etildi: 12.03.2026
Qog'oz bichimi: 70x85
Bosma tabog'i: 5.94
Ofset bosma. Ofset qog'ozi
Adadi: 100
Bahosi kelishilgan narxda
Buyurtma: 155-son

«TerDU bosmaxonasi»da chop etildi
Termiz shahri, Barkamol avlod ko'chasi, 43-uy

Tahririyat manzili:
190111, Termiz shahri,
Barkamol avlod ko'chasi, 43.
Telefon: +998762231649

E-mail:
philologicalresearch@umail.uz

Rasmiy sayt:
https://journaltersu.uz

BOSH MUHARRIR:
Abduqodir TOSHQULOV,
iqtisodiyot fanlari doktori, professor

TAHRIR HAY'ATI:

Bekpo'lat Umurqulov, filologiya fanlari doktori, professor (bosh muharrir o'rinbosari)
Shoxista Maxmaraimova, filologiya fanlari doktori, professor (mas'ul muharrir)
O'ral Xoliyorov, f.f.f.d. (PhD), dotsent (O'zbekiston)
Olmos Ulviy Binnatova, f.f.d., professor (Ozarbayjon)
Karl Rayxl, f.f.d., professor (Germaniya)
Vali Savash yelok, f.f.d., professor (Turkiya)
Dorota Silviya, f.f.f.d. (PhD), dotsent (Polsha)
Zabita Mahammad qizi Teymurlu, filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori, dotsent (Ozarbayjon)
Tarana Imomverdi qizi Xojieva, filologiya fanlari doktori, professor (Ozarbayjon),
Muslihiddin Muhiddinov, f.f.d., professor (O'zbekiston)
Ibodulla Mirzayev, f.f.d., professor (O'zbekiston)
Abdi Mamatov f.f.d., professor (O'zbekiston)
Suyun Karimov f.f.d., professor (O'zbekiston)
Muhammadxon Hakimov, f.f.d., professor (O'zbekiston)
Nafas Shodmonov f.f.d., professor (O'zbekiston)
Dilmurod Quronov, f.f.d., professor (O'zbekiston)
Murodqosim Abdiyev, f.f.d., professor (O'zbekiston)
Baxtiyor Mengliyev, f.f.d., professor (O'zbekiston)
Normat Yo'ldoshev, f.f.d., dotsent (O'zbekiston)
Baxtiyor Xolmuxamedov, f.f.d., dotsent (O'zbekiston)
Bobonazar Murtazayev, f.f.n., dotsent (O'zbekiston)
Asqar Eshmo'minov, f.f.d., professor (O'zbekiston)
Obidjon Shofiyev, f.f.f.d. (PhD), dotsent (O'zbekiston)
Zafar Umurqulov, f.f.d., dotsent (O'zbekiston)
Nurali Amonturdiyev, f.f.f.d. (PhD) (O'zbekiston)
Hakim Ahmedov, f.f.f.d., dotsent (O'zbekiston)
Abdulla Xudoyqulov, f.f.f.d., dotsent (O'zbekiston)
Ahad Shukurov, f.f.f.d., dotsent (O'zbekiston)
Eshnazar Jabborov, f.f.f.d., dotsent (O'zbekiston)
Abdumurod Arslonov, f.f.f.d., dotsent (O'zbekiston)
Sirojiddin Turdimurodov, f.f.f.d., dotsent (O'zbekiston)
Umida Raximova, f.f.f.d. (PhD) (O'zbekiston)
Gulchehra Begmatova, f.f.f.d. (PhD) (O'zbekiston)
Nargis Qurbonazarova, f.f.f.d., dotsent (O'zbekiston)
Muyassar Xolova, f.f.f.d., dotsent (O'zbekiston)
Shoira Omonturdiyeva, f.f.d., dotsent (O'zbekiston)
Sherzod Turdiqulov, f.f.f.d. (PhD) (O'zbekiston)
Alibek Omonturdiyev, f.f.f.d. (PhD) (O'zbekiston)
Humayun Nadim Muhammad, f.f.f.d., dotsent (O'zbekiston)

Texnik muharrir: Bahodir To'raliyev

Учредитель:
Термезский государственный университет

PHILOLOGICAL RESEARCH: LANGUAGE, LITERATURE, EDUCATION

FILOLOGIK TADQIQOTLAR: TIL, ADABIYOT, TA'LIM
ФИЛОЛОГИЧЕСКИЕ ИССЛЕДОВАНИЯ: ЯЗЫК, ЛИТЕРАТУРА, ОБРАЗОВАНИЕ

НАУЧНО-ИННОВАЦИОННЫЙ ЖУРНАЛ

Зарегистрировано Агентством информации и массовых коммуникаций при Администрации Президента Республики Узбекистан от 19 октября 2020 года под номером 1122.

Авторы несут ответственность за точность приведенных в текстах примеров, отрывков и данных. Необходимо указывать источник при копировании из журнала.

Разрешено к печати: 12.03.2026
Размер бумаги; 70x85
Печатный лист: 5.94
Офсетная печать: Офсетная бумага
Тираж: 100. Цена договорная
Заказ: 155

Печатано в «Типографии ТерГУ»
ул. Баркамол авлод 43, г. Термез

Адрес редакции:
190111, г.Термез, ул. Баркамол авлод, 43.
Телефон: +998762231649

E-mail:
philologicalresearch@umail.uz

Официальный сайт:
https://journaltersu.uz

ГЛАВНЫЙ РЕДАКТОР:
Абдукадир ТАШКУЛОВ,
доктор экономических наук, профессор

РЕДАКЦИОННАЯ КОЛЛЕГИЯ:

Бекпулат Умуркулов, доктор филологических наук, профессор (зам. главного редактора)
Шохиста Махмараимова, доктор филологических наук, профессор (ответственный редактор)
Урал Холияров, д.ф.ф.н. (PhD), доцент (Узбекистан)
Олмос Улвий Биннатова, д.ф.н., профессор (Азербайджан)
Карл Райхл, д.ф.н., профессор (Германия)
Вали Саваш Елок, д.ф.н., профессор (Турция)
Дорота Сильвия, PhD, доцент (Польша)
Забита Магомед кызы Теймурлу, доктор философии по филологии, доцент (Азербайджан)
Тарана Имамверди гызы Хаджиева, доктор наук, профессор (Азербайджан)
Муслихиддин Мухиддинов, д.ф.н., профессор (Узбекистан)
Ибодулла Мирзаев, д.ф.н., профессор (Узбекистан)
Абди Маматов, д.ф.н., профессор (Узбекистан)
Суюн Каримов, д.ф.н., профессор (Узбекистан)
Мухаммадхон Хакимов, д.ф.н., профессор (Узбекистан)
Нафас Шодмонов, д.ф.н., профессор (Узбекистан)
Дилмурод Куронов, д.ф.н., профессор (Узбекистан)
Мурадкасим Абдиев, д.ф.н., профессор (Узбекистан)
Бахтиёр Менглиев, д.ф.н., профессор (Узбекистан)
Нормат Юлдашев, д.ф.н., доцент (Узбекистан)
Бахтиёр Холмухамедов, д.ф.н., доцент (Узбекистан)
Бобоназар Муртазаев, к.ф.н., доцент (Узбекистан)
Аскар Эшмуминов, д.ф.н., профессор (Узбекистан)
Обиджон Шофиев, д.ф.ф.н. (PhD), доцент (Узбекистан)
Зафар Умуркулов, д.ф.н., доцент (Узбекистан)
Нурали Амонтурдиев, д.ф.ф.н. (PhD) (Узбекистан)
Хаким Ахмедов, д.ф.ф.н., доцент (Узбекистан)
Абдулла Худайкулов, д.ф.ф.н., доцент (Узбекистан)
Ахад Шукуров, д.ф.ф.н., доцент (Узбекистан)
Эшназар Джаббаров, д.ф.ф.н., доцент (Узбекистан)
Абдумурод Арслонов, д. ф.ф.н., доцент (Узбекистан)
Сирожиддин Турдимуродов, д. ф.ф.н., доцент (Узбекистан)
Умида Рахимова, д.ф.ф.н. (PhD) (Узбекистан)
Гульчехра Бегматова, д.ф.ф.н. (PhD) (Узбекистан)
Наргис Курбаназарова, д. ф.ф.н., доцент (Узбекистан)
Муяссар Холова, д.ф.ф.н., доцент (Узбекистан)
Шаира Амонтурдиева, д.ф.н., доцент (Узбекистан)
Шерзад Турдикулов, д.ф.ф.н. (PhD) (Узбекистан)
Алибек Омонтурдиев, д.ф.ф.н. (PhD) (Узбекистан)
Хумаюн Надим Мухаммад, д.ф.ф.н., доцент (Узбекистан)

Технический редактор: Баходир Туралиев

Institutor:
Termez State University

PHILOLOGICAL RESEARCH: LANGUAGE, LITERATURE, EDUCATION

FILOLOGIK TADQIQOTLAR: TIL, ADABIYOT, TA'LIM

ФИЛОЛОГИЧЕСКИЕ ИССЛЕДОВАНИЯ: ЯЗЫК, ЛИТЕРАТУРА, ОБРАЗОВАНИЕ

SCIENTIFIC-INNOVATIONAL JOURNAL

Registered by the Agency for Information and Mass Communications under the President's Administration of the of the Republic of Uzbekistan on October 19, 2020 under number 1122.

The authors are responsible for the accuracy of the examples, passages and data provided in the texts. The source must be specified when copying from the journal.

Approved for printing: 12.03.2026
Size of the paper: 70x85
Printed sheet: 5.94. Offset printing.
Offset paper. Circulation: 100
Price is negotiable
Order: 155. Printed at the «Printing House of the TerSU»
43, Barkamol avlod str. Termez city.

Address of Editorial Office:
190111, Barkamol avlod str., 43,
Termez city.
Phone: +998762231649

E-mail:
philologicalresearch@umail.uz

Official website:
https://journaltersu.uz

EDITOR IN-CHIEF:
Abdukodir TASHKULOV,
doctor of economic sciences, professor

EDITORIAL BOARD:

Bekpulat Umurkulov, doctor of philological sciences, professor (Uzbekistan) (deputy chief editor)
Shohista Makhmaraimova, doctor of philological sciences, professor (Uzbekistan) (editor-in-chief)
Ural Kholiyorov, Doctor of Philosophy in Philology, Associate Professor (Uzbekistan)
Olmos Ulviy Binnatova, doct.of philol. sciences, professor (Azerbaijan)
Karl Rayxl, doct.of philol. sciences, professor (Germany)
Vali Salvash Elok, doct. of philol. sciences, professor (Turkey)
Dorota Silvia, PhD, associate professor (Poland)
Zabita Magomed kyzy Teymurlu, Doctor of Philosophy in Philology, Associate Professor (Azerbaijan)
Tarana Imamverdi gizi Khadzhieva, Doctor of Sciences, Professor (Azerbaijan)
Muslihiddin Mukhiddinov, doct.of philol. sciences, professor (Uzbekistan)
Ibodulla Mirzaev, doct.of philol. sciences, professor (Uzbekistan)
Abdi Mmatov, doct.of philol. sciences, professor (Uzbekistan)
Suyun Karimov, doct.of philol. sciences, professor (Uzbekistan)
Muhammadkhon Khakimov, doct.of philol. sciences, professor (Uzbekistan)
Nafas Shodmonov, doct.of philol. sciences, professor (Uzbekistan)
Dilmurod Kuronov, doct. of philol. sciences, professor (Uzbekistan)
Muradkasim Abdiyev, doct. of philol. sciences, professor (Uzbekistan)
Bakhtiyor Mengliev, doct. of philol. sciences, professor (Uzbekistan)
Normat Yuldashev, doct. of philol. sciences, associate professor (Uzbekistan)
Bakhtiyor Kholmukhamedov, doct. of philol. sciences, associate professor (Uzbekistan)
Bobonazar Murtazaev, cand.of philol. sciences, associate professor (Uzbekistan)
Askar Eshmuminov, doct. of philol. sciences, professor (Uzbekistan)
Obidjon Shofiev, PhD, associate professor (Uzbekistan)
Zafar Umurkulov, doct. of philol. sciences, associate professor (Uzbekistan)
Nurali Amonturdiev, PhD (Uzbekistan)
Hakim Akhmedov, Doctor of Philosophy in Philology, Associate Professor (Uzbekistan)
Abdulla Khudaykulov, Doctor of Philosophy in Philology, Associate Professor (Uzbekistan)
Ahad Shukurov, Doctor of Philosophy in Philology, Associate Professor (Uzbekistan)
Eshnazar Jabbarov, Doctor of Philosophy in Philology, Associate Professor (Uzbekistan)
Abdumurod Arslonov, Doctor of Philosophy in Philology, Associate Professor (Uzbekistan)
Sirojiddin Turdimurodov, Doctor of Philosophy in Philology, Associate Professor (Uzbekistan)
Umida Rakhimova, Doctor of Philosophy in Philology (Uzbekistan)
Gulchekhra Begmatova, Doctor of Philosophy in Philology (Uzbekistan)
Nargis Kurbanazarova, Doctor of Philosophy in Philology, Associate Professor (Uzbekistan)
Muyassar Kholova, Doctor of Philosophy in Philology, Associate Professor (Uzbekistan)
Shoira Omonturdiyeva, doct. of philol. sciences, associate professor (Uzbekistan)
Sherzod Turdikulov, Doctor of Philosophy in Philology, Associate Professor (Uzbekistan)
Alibek Omonturdiev, Doctor of Philosophy in Philology (Uzbekistan)
Humayun Nadim Muhammad, Doctor of Philosophy in Philology, Associate Professor (Uzbekistan)

Technical editor: Bakhodir Turaliyev

МУНДАРИЖА

TILSHUNOSLIK

PARDAYEV AZAMAT BAXRONOVICH
So‘zning lingvistik tabiati xususida 7

HAMIDOVA MUHAYYOXON OBIDOVNA
Shukur Xolmirzayev nasrida milliy mentalitetning badiiy talqini 11

ABDURAXMONOV XUDOYNAZAR ABDIRAYIMOVICH
Mavhum otlarning kognitiv-semantik va diskursiv xususiyatlari:
zamonaviy tilshunoslik yondashuvlari asosida tahlil 16

ASADOV TO‘LQIN HAMROYEVICH
Predmet-belgi ma’noli ayrim morfologik oraliq so‘zlarning qiyosiy-tarixiy tavsifi 22

G‘AYBULLAYEVA DILDORA FAYZULLA QIZI
O‘zbek tilidagi insonning fizik xususiyatlarini
ifodalovchi frazeonimlarning semantik-stilistik tahlili 26

NASHIROVA SHAXNOZA BURIYEVNA
Ikki tilli lug‘atlar: nazariy asoslar va tarixiy yondashuv 29

NORKUZIYEVA DILDORA
Til tizimiga kiritilgan zoonim va zoomorfizmlarning
qiyosiy tipologik tadqiqotlardagi tahlili 33

ERGASHEVA DILRABO ALLANAZAROVNA
Epitet – badiiy matnni obrazli ifodalovchi vosita 38

AVEZOVA GULNOZA KAMILOVNA
Komil Avazning nasriy asarlarida dialektizmlarning qo‘llanilishi
(«Sozanda» romani misolida) 41

AMONOVA ZAMIRA
Nemis va o‘zbek tillarida destruksiyani ifodalovchi
fe’llarning metaforik qo‘llanilishi 44

NE’MATOVA O‘G‘ILOY AKRAM QIZI
«Maxzan ul-asror” dostonining badiiy-tasviriy
vositalari va uslubiy xususiyatlari 53

TUROBOVA MATLUBA RAXMATULLAYEVNA
Sun’iy intellekt tizimlarida o‘zbek tili leksikografik bazasini
shakllantirishning innovatsion usullari 56

KO‘CHIYEVA SHABNAM ISOMIDDIN QIZI
Tilshunoslikda disleksiya va disgrafiyaning
neyrolingvistik va psixolingvistik tadqiqi masalalari 60

OZADOVA MA’MURA ERGASHEVNA
Xorazm xalq qo‘shiqlari tilidagi manglay leksemasining lingvokulturologik va
lingvopoetik xususiyatlariga doir 63

ALLAQULOVA SADOQAT AXMAT QIZI
O‘zbek tilining umumiy izohli lug‘atlarida etnoleksemalar berilishining qiyosiy tahlili 65

O‘RAZOV ALISHER DONIYOROVICH
O‘zbek tilida leksemaning semantik tabiati 68

JUMAYEVA KUMUSH TURSUNALIYEVNA
O‘zbek tili o‘zlashma qatlam somatik lesemalarida leksik tipologiya 72

МУНДАРИЖА

MURODQULOVA IRODA SHAROFIDDINOVNA
Semurg‘ obrazining lingvomadaniy talqini (o‘zbek xalq dostonlari misolida) 76

XASANOV DAVIRBEK ABDUMALIK O‘G‘LI
Frazeologik birliklarning lingvomadaniy tadqiqi 80

TO‘YCHIYEVA ZULAYXO HAMROQO‘LOVNA
Muhammad Yusuf ijodida jonli xalq tili elementlari 84

O‘RINBOYEVA E’ZOZXON KAMOLOVNA
RAXMONOVA DILZODAXON AKMALJON QIZI
Undoshlar bilan bog‘liq fonetik hodisalar: assimilatsiya 86

ЖАСУР ХУРСАНДОВ
Лингвокультурологические особенности анималистических
фразеологизмов в русском и узбекском языках 89

OZOTBOYEVA MAXFUZA RAVSHAN QIZI
Badiy matnda diskursiv shaxs talqini 94

ADABIYOTSHUNOSLIK

АСРОРОВ АКБАР, БОЛТАЕВ МАРДОН
Шоҳона сатрлар соҳиби – Султон Убайдий 98

SAMATOV SHOMAT, XO‘JANOVA OZODA
Buyuk shoir xotirasiga munosib haykal 103

ABDULLAYEV RAMAZON
Composing tatabbu‘ poetry in the time of Mu‘izzī and after him 106

JEPBAROWA SAÝAT KURBANMIRATOWNA,
EGENMURADOV ARZUV ANNAMIRATOVICH
Magtymguly Pyragynyň döredijilik äleminde möwlana Lutfynyň edebi poetik täsiri 111

ABDUXALIQOVA HILOLA G‘ULOM QIZI
XVIII–XIX asrlar o‘zbek dostonlarida tasavvufiy talqinlar 115

PAYG‘AMOVA SHIRIN JAKBARALI QIZI
Analitik folklorizmlarning poetik xususiyatlari 118

JAVLIYEV POYONBEK SHAVKAT O‘G‘LI
Usmon Azim nasrida lirik ohang 121

FERUZA RASULOVNA RASHIDOVA
The depiction of internal monologue as a form of artistic psychologism
in the novels of the Bronte sisters 124

TA’LIM

MASHARIPOVA NARGIZA OTAXONOVNA,
BAXRAMOVA MALIKA MUZAFFAROVNA
Sun’iy intellektli o‘yin yordamida inglizcha so‘z boyligini oshirish
(o‘zbek madaniyati asosida) 127

XABIBULLAYEVA SHOIRA SHUKURILLAYEVNA
Ona tili darslarida qo‘llaniladigan innovatsion pedagogik texnolgiyalarning o‘rni
(morfologiya bo‘yicha mashqlar tahlilida) 132

Filologik tadqiqotlar: til, adabiyot, ta'lim. 2026; 1-2
ISNN: 2181-1741 (Print)
ISNN: 2181-1725

BADIY MATNDA DISKURSIV SHAXS TALQINI

Ozotboyeva Maxfuza Ravshan qizi
Alisher Navoiy nomidagi o'zbek tili va adabiyoti universiteti 2-kurs tayanch doktoranti

Zamonaviy tilshunoslikda badiiy matnni faqat til birliklari yig'indisi sifatida emas, balki murakkab kommunikativ, estetik va madaniy hodisa sifatida o'rganish tobora muhim ahamiyat kasb etmoqda. Chunki badiiy asar oddiy axborot yetkazuvchi matn emas, balki inson tafakkuri, ruhiyati, dunyoqarashi, milliy qadriyatlari va ijtimoiy munosabatlarini o'zida mujassamlashtirgan murakkab nutqiy tuzilmadir. Shu bois badiiy matnda shaxs omilini o'rganish bugungi filologiya fanining dolzarb masalalaridan biri hisoblanadi.

Badiiy matnda shaxs omili turli shakllarda namoyon bo'ladi. Muallif voqelikni o'z estetik qarashlari asosida tasvirlaydi, personajlar esa o'z nutqi, xatti-harakati va munosabati orqali muayyan ijtimoiy hamda ruhiy qiyofaga ega bo'ladi. Ana shu jarayonda "diskursiv shaxs" tushunchasi alohida ilmiy ahamiyat kasb etadi[1]. Diskursiv shaxs deganda badiiy matn doirasida nutqiy faoliyat olib boruvchi, muayyan kommunikativ maqsadni amalga oshiruvchi, o'zining dunyoqarashi, ruhiy holati va ijtimoiy mavqeyini til vositalari orqali namoyon etuvchi subyekt tushuniladi. Diskursiv shaxs oddiy "gapiruvchi shaxs"dan farq qiladi. Oddiy gapiruvchi shaxs nutq jarayonida fikr bildirsa, diskursiv shaxs matn ichida ma'lum estetik, pragmatik va semantik vazifani bajaradi. Masalan, badiiy asardagi personajning "men bunga rozi emasman" tarzidagi oddiy gapi ham faqat norozilik ifodasi bo'lib qolmaydi. U personajning xarakterini, ichki qarama-qarshiligini, ijtimoiy mavqeyini yoki muallif ilgari surayotgan g'oyani ochib berishga xizmat qilishi mumkin. Demak, badiiy matnda har bir nutqiy birlik ortida muayyan diskursiv vazifa mavjud.

Diskursiv shaxsni o'rganish, ayniqsa, badiiy matn tahlilida muhimdir. Chunki badiiy asarda obraz faqat tashqi tasvir orqali emas, balki nutq orqali ham yaratiladi. Personaj qanday so'zlaydi, qanday so'zlarni tanlaydi, gap qurilishi qanday, unda xalqona iboralar, shevaga xos birliklar, kinoya, sukut yoki emotsional ifodalar qanday qo'llanadi — bularning barchasi diskursiv shaxsni aniqlashda muhim mezon bo'lib xizmat qiladi. Masalan, Abdulla Qodiriyning "O'tkan kunlar" romanida Otabek nutqi uning ma'rifatli, mulohazali, zamonasidan ilgarilab fikrlaydigan shaxs ekanini ko'rsatadi. Uning gaplarida keskinlikdan ko'ra vazminlik, chuqur o'y, ma'naviy mas'uliyat ustun turadi. Kumush nutqida esa hayo, ichki noziklik, sadoqat va milliy ayol obraziga xos ruhiy go'zallik seziladi. Zaynab nutqi orqali esa rashk, ichki iztirob, o'zini anglatishga bo'lgan urinish kabi psixologik holatlar ochiladi[2]. Demak, bir asar doirasida turli personajlar turli diskursiv shaxs sifatida namoyon bo'ladi.

Cho'lponning "Kecha va kunduz" romanida ham diskursiv shaxs talqini muhim o'rin tutadi. Zebi obrazi orqali o'zbek ayolining ichki kechinmalari, jamiyatdagi cheklangan mavqeyi, erkinlikka intilishi va ruhiy iztirobi ifodalanadi. Zebi ko'pincha ochiq va dadil nutq orqali emas, balki ichki kechinma, sukut, iztirobli holat va muhitga munosabati orqali diskursiv shaxs sifatida namoyon bo'ladi. Bu holat badiiy matnda diskursiv shaxs faqat dialog orqali emas, balki ichki nutq va psixologik tasvir orqali ham yuzaga chiqishini ko'rsatadi[3].

Badiiy matnda diskursiv shaxsni o'rganish muallif pozitsiyasini aniqlashda ham muhimdir. Muallif o'z qarashlarini doimo bevosita bayon qilavermaydi. U ko'pincha personaj nutqi, voqealar rivoji, kinoya, tasvir, dialog yoki kompozitsion qurilish orqali o'z munosabatini bildiradi. Shu sababli badiiy matn tahlilida muallif diskursiv shaxsi va personaj diskursiv shaxsini farqlash zarur. Ba'zan personaj fikri muallif qarashi bilan mos keladi, ba'zan esa ular o'rtasida ziddiyat yuzaga keladi. Ana shu ziddiyat badiiy matnning mazmuniy chuqurligini oshiradi. Badiiy matnda di-

[1] Safarov Sh. Pragmalingvistika. – Toshkent: O'zbekiston milliy ensiklopediyasi, 2008. – B. 34.
[2] Qodiriy A. O'tkan kunlar. – Toshkent: Sharq, 2019. – B. 56.
[3] Cho'lpon. Kecha va kunduz. – Toshkent: Yangi asr avlodi, 2016. – B. 95.

skursiv shaxsning yana bir muhim jihati uning milliy-madaniy belgilar bilan bog‘liqligidir[1]. Har bir personaj nutqida u mansub bo‘lgan muhit, davr, ijtimoiy qatlam va madaniy qarashlar aks etadi. Masalan, Tog‘ay Murod asarlarida xalqona ohang, jonli so‘zlashuv tili, urf-odatlarga oid birliklar personajlarning milliy ruhini ochib beradi. “Otamdan qolgan dalalar” romanidagi qahramonlar nutqida oddiy xalqning dardi, yerga bog‘liqlik, mehnat, iztirob va tarixiy xotira kuchli seziladi. Bu nutqiy xususiyatlar orqali qahramonlar faqat individual obraz sifatida emas, balki xalqning umumlashgan diskursiv vakili sifatida ham talqin qilinadi[2].

Maqolaning dolzarbligi shundaki, badiiy matnda diskursiv shaxsni o‘rganish orqali matnning ichki mazmuni, personajlar ruhiyati, muallifning estetik niyati va milliy tafakkur ifodasi chuqurroq anglanadi. An’anaviy tahlilda ko‘proq obraz, syujet, kompozitsiya va g‘oya masalalariga e’tibor qaratilgan bo‘lsa, diskursiv yondashuv badiiy matndagi nutq egasining kommunikativ faoliyatini, uning til vositalari orqali qanday shakllanishini aniqlashga imkon beradi.

Tadqiqotning maqsadi badiiy matnda diskursiv shaxsning talqin qilinish xususiyatlarini ilmiy asosda yoritishdan iborat. Ushbu maqsadni amalga oshirish uchun diskurs va diskursiv shaxs tushunchalarining nazariy asoslari aniqlanadi, badiiy matnda muallif va personaj nutqining o‘zaro munosabati tahlil qilinadi, diskursiv shaxsning pragmatik, lingvopoetik hamda milliy-madaniy xususiyatlari misollar asosida ochib beriladi.

Tadqiqot obyekti sifatida badiiy matn va undagi nutqiy subyektlar tanlanadi. Tadqiqot predmeti esa badiiy matnda diskursiv shaxsning namoyon bo‘lish shakllari, uning til vositalari orqali ifodalanishi va estetik vazifalaridan iborat. Maqolada tavsifiy, qiyosiy, lingvopoetik va pragmatik tahlil usullaridan foydalaniladi.

Diskurs tushunchasi bugungi tilshunoslikda keng qo‘llanayotgan murakkab ilmiy terminlardan biridir. Dastlab diskurs matn bilan yaqin ma’noda ishlatilgan bo‘lsa, keyinchalik uning mazmun doirasi ancha kengaydi. Hozirgi ilmiy qarashlarda diskurs matnning o‘zi bilangina cheklanmaydi, balki matnni yuzaga keltirgan shaxs, kommunikativ vaziyat, ijtimoiy muhit, madaniy kontekst, nutqiy maqsad va tinglovchi yoki o‘quvchi bilan bo‘lgan munosabatlarni ham o‘z ichiga oladi. Shu jihatdan diskurs matndan kengroq tushuncha hisoblanadi.

Matn tayyor mahsulot bo‘lsa, diskurs shu mahsulotni yuzaga keltiruvchi jarayon bilan bog‘liqdir. Masalan, badiiy asardagi bir dialog matn sifatida yozilgan gaplardan iborat bo‘lishi mumkin. Ammo diskurs sifatida tahlil qilinganda, ushbu dialogda kim gapiryapti, kimga gapiryapti, nima maqsadda gapiryapti, qanday vaziyatda gapiryapti, gapning ortida qanday yashirin ma’no borligi ham o‘rganiladi. Demak, diskurs tahlili matnning tashqi shakli bilan emas, uning ichki kommunikativ mohiyati bilan bog‘liqdir. Diskursiv shaxs esa ana shu diskurs jarayonida markaziy o‘rinda turadi. Chunki har qanday diskurs shaxssiz yuzaga kelmaydi. Nutqni kimdir yaratadi, kimdir qabul qiladi, kimdir unga munosabat bildiradi. Badiiy matnda bu jarayon yanada murakkab tus oladi. Unda muallif, hikoyachi, personaj, lirik qahramon va o‘quvchi o‘rtasida bevosita yoki bilvosita kommunikativ aloqa yuzaga keladi. Shuning uchun badiiy matnda diskursiv shaxsni o‘rganish matnning badiiy-estetik tabiatini anglashda muhim omildir. Diskursiv shaxsni quyidagi belgilar asosida aniqlash mumkin: birinchidan, u nutqiy faoliyat egasidir. Ya’ni badiiy matnda u o‘z fikrini, hissiyotini, munosabatini til vositalari orqali bildiradi; ikkinchidan, u muayyan kommunikativ maqsadga ega bo‘ladi. Personajning har bir gapi bejiz aytilmaydi, balki voqealar rivoji, xarakter ochilishi yoki muallif g‘oyasini ifodalashga xizmat qiladi; uchinchidan, u individual nutq uslubiga ega bo‘ladi. Har bir personaj o‘ziga xos so‘zlaydi. Ana shu o‘ziga xoslik uning diskursiv shaxs sifatidagi qiyofasini yaratadi; to‘rtinchidan, u ijtimoiy va madaniy muhit bilan bog‘liq bo‘ladi. Personaj nutqi uning qaysi davr, qaysi muhit va qaysi ijtimoiy qatlam vakili ekanini ko‘rsatadi; beshinchidan, u estetik vazifa bajaradi.

Badiiy matnda diskursiv shaxs faqat axborot beruvchi emas, balki obraz yaratish, ta’sir ko‘rsatish va badiiy g‘oyani ochish vositasidir. Masalan, Abdulla Qahhor hikoyalarida oddiy odamlar nutqi orqali ularning hayotga munosabati, kulgili yoki fojiaviy holati ochib beriladi. “O‘g‘ri” hikoyasida Qobil bobo obrazi sodda, ishonuvchan, nochor inson sifatida gavdalanadi. Uning atrofidagi amaldorlar nutqi esa rasmiylik, befarqlik va loqaydlik belgilariga ega. Shu orqali bir matn ichida bir nechta diskursiv shaxs qarama-qarshi qo‘yiladi: biri oddiy xalq vakili, ikkinchisi esa byurokratik muhit vakili sifatida namoyon bo‘ladi[3].

[1] Yo‘ldoshev B. Badiiy matn lingvopoetikasi. – Toshkent: Fan, 2006. – 186 b.
[2] Tog‘ay Murod. Otamdan qolgan dalalar. – Toshkent: Sharq, 2008. – B. 53.
[3] Oybek. Navoiy. – Toshkent: G‘afur G‘ulom nomidagi nashriyot, 2019. – B. 112.

Diskursiv shaxsni o‘rganishda nutqning tashqi shakli bilan birga uning yashirin ma’nosi ham muhimdir. Badiiy matnda personaj ba’zan aytmoqchi bo‘lgan fikrini ochiq ifodalamaydi. U sukut saqlaydi, kinoya qiladi, savol beradi, gapni yarim qoldiradi yoki boshqa obrazli vositalardan foydalanadi. Bunday holatlarda diskursiv shaxsning ichki dunyosi bevosita emas, bilvosita ochiladi. Aynan shu jihat badiiy matnning estetik ta’sir kuchini oshiradi. Badiiy matnda diskursiv shaxs, avvalo, muallif va personaj nutqi orqali namoyon bo‘ladi. Muallif asarning asosiy yaratuvchisi sifatida barcha obrazlar, voqealar va nutqiy jarayonlarni boshqaradi. Shu sababli muallif diskursiv shaxsi badiiy matnning umumiy semantik va estetik yo‘nalishini belgilab beradi. Biroq muallifning o‘zi har doim ham fikrini ochiq bayon qilavermaydi. U ko‘pincha personajlar nutqi, ichki monolog, tasvir, kinoya yoki ramziy vositalar orqali o‘z qarashlarini ifodalaydi.

Muallif diskursiv shaxsining muhim belgilaridan biri uning individual uslubidir. Har bir ijodkor voqelikni o‘z dunyoqarashi asosida tasvirlaydi. Shu bois yozuvchining til tanlovi, gap qurilishi, tasvir vositalari va personajlar nutqini tashkil etish usuli uning diskursiv qiyofasini belgilaydi. Masalan, Abdulla Qodiriy asarlarida tarixiylik, milliy ruh va ma’rifatparvarlik ustun bo‘lsa, Cho‘lpon asarlarida ruhiy iztirob, ichki kechinma va erkinlik g‘oyalari kuchli seziladi. Muallif diskursiv shaxsining yana bir xususiyati shundaki, u badiiy matnda bir vaqtning o‘zida bir nechta pozitsiyada namoyon bo‘lishi mumkin. Ayrim hollarda muallif voqealarga bevosita aralashadi, izoh beradi yoki munosabat bildiradi. Boshqa hollarda esa u go‘yoki chetga chiqadi va voqealarni personajlar orqali ochishga harakat qiladi. Bu usul ayniqsa realist adabiyotda ko‘p uchraydi. Personaj diskursiv shaxsi esa badiiy matndagi individual obrazni shakllantiruvchi asosiy omillardan biridir. Personajning qanday gapirishi, qanday iboralardan foydalanishi, gapirish ohangi, hissiy holati va kommunikativ maqsadi uning xarakterini ochib beradi. Shu sababli badiiy asarda personaj nutqi oddiy suhbat emas, balki estetik va semantik yuklamaga ega bo‘lgan muhim vosita hisoblanadi.

Masalan, Abdulla Qodiriyning “Mehrobdan chayon” romanidagi Solih mahdum nutqi bilan Anvar nutqi o‘rtasida katta farq mavjud. Solih mahdumning gaplarida eski dunyoqarash, mutaassiblik va diniy taassub seziladi. U ko‘pincha pand-nasihat ohangida so‘zlaydi, biroq uning nutqida samimiyatdan ko‘ra hukmronlik ustun turadi. Anvar esa zamonaviyroq fikrlaydi, uning nutqida mulohazalilik va adolatga intilish seziladi. Shu orqali ikki personajning ichki dunyosi va dunyoqarashi diskursiv jihatdan qarama-qarshi qo‘yiladi. Oybekning “Navoiy” romanida Alisher Navoiy nutqi orqali ilm-ma’rifat, insonparvarlik va donishmandlik namoyon bo‘ladi. Uning gaplarida mulohazali fikr, badiiylik va falsafiy mazmun ustun turadi. Masalan, Navoiyning: “Ilm insonni yuksaltiradi, jaholat esa uni tubanlikka yetaklaydi”, - mazmunidagi fikrlari uning diskursiv shaxs sifatidagi ma’rifatparvar qiyofasini ochib beradi. Shu bilan birga, Husayn Boyqaro nutqida hukmdorlarga xos qat’iyat, siyosiy mulohaza va ichki ikkilanish seziladi. Demak, bir asar ichida turli diskursiv shaxslar mavjud bo‘lib, ular o‘ziga xos kommunikativ strategiya orqali shakllanadi.

Personaj diskursiv shaxsini ochishda dialog muhim vosita hisoblanadi. Dialog orqali personajlarning o‘zaro munosabati, ruhiy holati va xarakteri ochiladi. Ayniqsa, konfliktli vaziyatlarda diskursiv shaxs yanada yaqqolroq namoyon bo‘ladi. Chunki ziddiyatli holatda personaj o‘zining asl ichki dunyosini yashira olmaydi. Masalan, “O‘tkan kunlar” romanida Otabek va Zaynab o‘rtasidagi suhbatlarda ichki keskinlik seziladi. Zaynabning gaplarida rashk, iztirob va ichki g‘azab yashirin holda ifodalanadi. U ko‘pincha kinoyali va keskin ohangda so‘zlaydi. Otabek esa vazminlikni saqlashga urinadi. Ana shu dialog orqali ikki personajning ruhiy holati va diskursiv xarakteri ochiladi. Ichki monolog ham diskursiv shaxsni ochishda muhim vositalardan biridir. Ichki monolog orqali personajning yashirin o‘ylari, qo‘rquvi, orzulari va ichki kurashi namoyon bo‘ladi. Bu usul, ayniqsa, psixologik tasvir kuchli bo‘lgan asarlarda keng qo‘llanadi.

Cho‘lponning “Kecha va kunduz” romanida Zebi obrazi ko‘pincha ichki monolog orqali ochiladi. Zebi tashqi jihatdan itoatkor va sokin ko‘rinsa-da, uning ichki kechinmalarida erkinlikka intilish, adolatsizlikka norozilik va ruhiy iztirob kuchli seziladi. Bu holat personajning ikki qatlamli diskursiv qiyofasini yuzaga chiqaradi: tashqi sokinlik va ichki qarshilik. Badiiy matnda diskursiv shaxsni yaratishda xalqona iboralar, shevaga xos birliklar va frazeologizmlar ham muhim ahamiyatga ega. Chunki ular personajning milliy va ijtimoiy mansubligini ko‘rsatadi. Masalan, Tog‘ay Murod asarlarida qahramonlar nutqida Surxon vohasiga xos xalqona birliklar faol qo‘llanadi. Bu esa matnga tabiiylik va milliy ruh bag‘ishlaydi. “Otamdan qolgan dalalar” romanida dehqon obrazlari nutqida yerga mehr, og‘ir mehnat va xalqona donolik seziladi. Masalan: “Yer odamni boqadi, odam yerni asrasa”,- kabi iboralar oddiy xalq tafakkurining ifodasidir.

Bu yerda personaj faqat individual obraz emas, balki xalqning umumlashgan diskursiv vakiliga aylanadi.

Diskursiv shaxsni ochishda emotsional-ekspressiv vositalar ham katta rol o‘ynaydi. Undov gaplar, ritorik so‘roqlar, takrorlar, sukut va pauzalar personajning hissiy holatini ifodalashga xizmat qiladi. Masalan, “Voy, nahotki shunday bo‘lsa?!” kabi gaplar personajning hayrat yoki iztirobini ochib beradi. Ba’zan esa personajning sukut saqlashi uning ichki ruhiy holatini oddiy gapdan ko‘ra kuchliroq ifodalaydi.

Shunday qilib, badiiy matnda muallif va personaj diskursiv shaxsi murakkab kommunikativ tizimni tashkil qiladi. Muallif voqelikni o‘z estetik qarashlari asosida yoritadi, personaj esa nutqi orqali individual ruhiy va ijtimoiy qiyofasini namoyon etadi. Ana shu ikki qatlamning o‘zaro munosabati badiiy matnning semantik va estetik chuqurligini ta’minlaydi.

Rezyume. Maqolada badiiy matndagi diskursiv shaxsning lingvistik, pragmatik va lingvopoetik xususiyatlari hamda uning muallif va personaj nutqi orqali namoyon bo‘lish shakllari tahlil qilinadi.

Resume. The article examines the linguistic, pragmatic, and linguopoetic features of the discursive personality in literary texts and its manifestation through the speech of the author and characters.

Резюме. В статье анализируются лингвистические, прагматические и лингвопоэтические особенности дискурсивной личности в художественном тексте и формы её проявления через речь автора и персонажей.